

Odam

payg'ambar qissasi



*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi.*

NUUR

TARJIMONLAR
GURUHI

Odham


payg'ambar qissasi




Özkan Öze
Rassom: Sevgi İçigen

Bu kitobdagi rasmlarda payg'ambarlarning yuzlarini ko'ra olmaysiz. Chunki musulmonlar payg'ambarlarga bo'lgan hurmatlari tufayli ularning rasmlarini chizmaydilar.





Avvalida faqat Allohning yakka o'zi bor edi,
Alloh hali hech bir mavjudotni yaratmagan edi.
U bilan birgalikda hech narsa yo'q edi. Keyin
Alloh yaratishni xohladi . Va "BO'L!" dedi.
Chunki Alloh biror narsani yaratmoqchi bo'lsa,
Faqatgina "Bo'l!" deyishini o'zi yetarli.
Va "Bo'l" degani shu zahoti bo'ladi...




Alloh "bo'li!" - dedi, yulduzlar bo'ldi.
Alloh "bo'li!" dedi, dunyo bo'ldi.
Osmon, bulutlar, daraxtlar, gullar,
mevalar paydo bo'ldi...




Alloh "bo'li!" - dedi asalarilar, kapalaklar va chumolilar paydo bo'ldi.

Qushlar, baliqlar, jayronlar... Yo'lbarslar, fillar paydo bo'ldi.

Alloh "bo'li!" - dedi: qo'ylar, tez yuguruvchi otlar va katta sigirlar paydo bo'ldi.






Va Alloh "BO'L!" dedi. Tuproqdan bir
inson paydo bo'ldi. Bu birinchi inson edi.
Alloh unga Odam deb ism qo'ydi.
Odam Ato avval jannatda edi.
Va juda mamnun edi. Ammo u yolg'iz edi!
Koshki, Odamning ham bir do'sti(jufti)
bo'lsa edi! Alloh shunda Momo Havoni
Odam Atoga do'st qilib yaratdi.



Odam Ato bilan Momo Havo birgalikda go'zal hayot kechirishardi. Chunki jannat juda go'zal joy edi. U yerda ko'ngillari nima istasa bor edi. Turli-tuman gullar va ko'plab mevali daraxtlar...








Barcha daraxtlarga chiqib, istagan mevalaridan yeya olishar edi.

Ammo bittagina daraxtga ruxsat yo'q edi!


Alloh taolo: "Hech qachon bu daraxtga yaqinlashmanglar!" degan edi. Bu taqiqlangan daraxt edi. Uning mevasi ham taqiqlangan meva edi!

Odam Ato va Momo Havo jannatda juda baxtli edilar. Ammo shayton umuman xursand emas edi. Chunki u Odamni yomon ko'rardi. Tabiiyki, Momo Havoni ham hech yoqtirmasdi.




Alloh shaytonni olovdan yaratgandi.
U farishta emas edi, lekin farishtalar bilan
bir darajada edi. Alloh Odam Atoni
yaratganida, farishtalarga Odam Atoga
sajda qilishlarini buyurdi. Farishtalar bu
buyruqni darhol bajardilar.





Shayton esa Allohga “Meni olovdan,
Odamni tuproqdan yaratding!”, deb javob
berdi. “Men undan ustunman! Uni hech
qachon hurmat qilmayman!” dedi. Bu
Allohga ochiqchasiga qarshilik qilish edi.
Ham katta bir hurmatsizlik!

Alloh shaytondan g'azablandi. Va
uni huzuridan haydab yubordi.
Shuning uchun shayton Odamni
yomon ko'rardi. Va Odam Atodan
qasos olishni diliga tugib
qo'ygandi.
Lekin qanday?





Jannatdagi go'zal kunlardan biri edi.
Shayton bir daraxt orqasiga
yashirindi. U Odam Ato va Momo
Havoni kuzatib turardi. "Shularni bu
yerdan quvdirishim kerak!" dedi. Va
xoinlarcha bir reja tuzdi.

“Salom Odam! Salom Havo!” deya yashiringan joyidan birdan chiqdi. “Salom senga ham!” — dedi Odam Ato bilan Momo Havo. “Voh, sizlarga juda achinyapman,” dedi shayton. “Nima uchun?” “Bizni nimamizga achinyapsan?” - dedi Odam.





Tez kunda jannatdan ketarkansiz-a! - dedi shayton. "Biz ketarkanmizmi?!", — deya ajablandi Odam. "Ha shunday!" - dedi shayton. "Kuni kelib o'lasiz va bu yerdan ketarkansiz!"



Bu yer jannat! - dedi Odam. "Bu yerda o'lim yo'q!"

"Sizlar shunday deb o'ylaysiz!" - dedi shayton. Odam qo'rqib ketdi. Momo Havo esa undanam ko'p qo'rqdi...

"Lekin umuman tashvishlanmang! Buning bir yo'li bor." - dedi shayton. Va uzoqdagi bir daraxtni ko'rsatib: "Agar o'sha daraxtning mevasidan yesangiz, hech qachon o'lmaysiz va jannatda abadiy qolasiz!" - dedi.



"Ammo bu taqiqlangan daraxt!" - dedi
Odam. "Biz undan hech qachon
yemasligimiz kerak! U bizga taqiqlangan!"
- dedi Momo Havo ham. Shayton esa
"Allohga qasamki, men rost gapiryapman!
-deb javob berdi. Va yana ko'plab
qasamlar ichdi...



Shayton shunchalar qasam ichdiki, Odam Ato bilan Momo Havo tezda unga ishonishdi. Shundoq ham ular yolg'on nimaligini bilishmas edi. Ular borib, man qilingan daraxtning mevasidan yedilar. "Ha hahaha!" - deb kuldi shayton. "Ularni aldadim! Ularni chuv tushirdim!"





Alloh Odam va Havoga shayton ularni dushmani ekanligini ta'kidlagan edi. Shayton bilan ehtiyotkor bo'lish kerakligini aytgandi. "Eyvoh!" - dedi Odam. "Biz nima qilib qo'ydik! Bu meva man qilingan daraxtning mevasi edi, biz uni hech qachon yemasligimiz kerak edi!" Momo Havo yig'lay boshladi. Ikkalasi ham qilgan ishidan juda afsusda edilar.


Odam Ato va Momo Havo Allohga
tavba qilib, kechirim so'rashdi. Alloh
taolo ularni avf etdi. Chunki Alloh
kechirishni yaxshi ko'radi. Ammo ular
endi jannatda qola olmasdilar. Va
Alloh ularni yer yuziga jo'natdi.





Odam Ato va Momo Havo ko'p yillar davomida yer yuzida yashadilar. Dunyoda yashash unchalik oson emas edi. Lekin Alloh Odam Atoga hamma narsani o'rgatgan edi. Masalan, ekin ekish va non tayyorlash! Baliq ovlash va albatta, olov yoqishni ham!





Keyin Odam Ato va Momo Havo ko'p farzandlar ko'rishdi. Alloh Odam Atoga payg'ambarlik vazifasini berdi. Odam alayhissalom farzandlariga doimo Allohni tanitdi. Va shayton ularni qanday aldagani hamda jannat qanday go'zal joy ekanligi haqida ham ta'lim berdi.

Hammasi mana shunday boshlandi.

Biz hammamiz Odam alayhissalomning farzandlarimiz!





TARJIMONLAR
GURUHI

*Ushbu asar turk tilidan o'zbek tiliga **Nuur** tarjimonlar guruhi tomonidan o'girildi. Duolaringizdan umidvormiz!*

 @nuur_uz